



PAXTAKOR  
TUMANI

AXBOROT  
KUTUBXONA  
MARKAZI

## Paxtakor tuman axborot- kutubxona markazi bibliografiya bo`limi xodimi tomonidan



**14-yanvar “Vatan himoyachilari” kuniga  
tayyorlangan**

***ESLATMA***

Ma'lumki, 1993-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Qonuniga binoan "14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni" deb e'lon qilindi. Vatan himoyachilari kunini ko'tarinki va ta'sirchan ruhda, haqiqiy xalq bayrami sifatida, yangicha shaklda tashkil etish maqsadida Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 21-noyabr "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-4 farmoyishi qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Armiya va xalq – bir tanu bir jon!" degan oljanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruvi idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi" deb aytgan gaplarida ham Qurolli Kuchlarimizning xalq bilan har qachongidan ham yaqinligini anglashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, aholida milliy armiyadan faxrlanish va unga bo'lgan ishonch hissini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ta'minlash maqsadida Navoiy davlat pedagogika instituti hamda Navoiy viloyat mudofa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda "Vatanga ximzmat-oliy fazilat", "Armiya va xalq – bir tanu bir jon" mavzularida tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarni o'tkazishdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, aholida milliy armiyadan faxrlanish va unga bo'lgan ishonch hissini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ta'minlash shuningdek ularda ota-onas, oilaga, qolaversa Vatan oldidagi javobgarliklarini oshirishga qaratilgandir.

Yurtimizda Vatan himoyasi kabi sharaflı ulug'vor ishga o'zini bag'ishlagan harbiylarimiz, nafaqadagi faxriyalarimiz katta hurmat va e'zoz bilan qadrlanib, har yili "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni" katta bayram va shodiyona bilan o'tadi. Bu kabi e'tibor va e'tirof mas'uliyatli kasb egalarining Vatan oldidagi xizmatlarini yuqori baholanishini namoyon etib, ularning kelgusidagi faoliyatiga ham kuch-quvvat, shijoat va albatta sadoqat bag'ishlaydi.

Albatta, Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo'lgan milliy armiyamiz va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan halqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning turli joylarida keskin tus olayotgan vaziyatda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavf-xatarlari barchamizni ogoh bo‘lishga chaqiradi va Qurolli kuchlarimizdan esa yuqori darajadagi jangovar qobiliyatni mustahkamlashni talab etadi. So‘nggi yillarda davlatimizda harbiy-siyosiy masalalarda ham tubdan islohotlar amalga oshirilib, milliy armiyamiz har qanday tahdidlarga munosib zarba beradigan jangovor qudrati yildan yilga oshib bormoqda.

Bundan tashqari, har bir harbiy xizmatchining bilimi, malakasi hamda ruhiy tayyorgarligi oshirilib borilmoqda.

Biz bilamizki azal-azaldan harbiylik kasbi mashaqqatli, shu bilan birga sharaflı kasb sifatida sanalib kelingan. Mashaqqati shundaki, vatanimizning tinchligi va osoyishtaligi uchun barcha mas’uliyat harbiyalarimiz zimmasiga tushadi. Ular kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, qahraton sovuqqa ham, jazirama issiqqa ham bardosh berib vatanimiz tinchligini, uning sarhadlarini qo‘riqlab kelishmoqdalar.

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minalash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo‘yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Bugun biz, milliy armiyamiz harbiy vatanparvarlik, harbiy qurilish va harbiy sanoat sohasida dunyodagi eng yaxshi tajribalarni qo‘llagan holda, chegaralarimiz xavfsizligini ta’minalashning ishonchli kafolatiga aylandi deb g‘urur bilan aytu olamiz. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining tayanchi va suyanchi bo‘lgan zamonaviy harbiy xizmatchilar timsolida biz avvalambor chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o‘z muqaddas harbiy burchini bajarish yo‘lida qat’iy iroda va mustahkam tayyorgarlikka ega bo‘lgan, ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni ko‘ramiz hamda ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Vatanni himoya qilish, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash yurtning har bir farzandi vazifasidir. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtida armiya saflarida o‘z burchini o‘tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami, deb qabul qilingan. Ushbu bayram munosabati bilan har yili tantanali tadbirlar o‘tkaziladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondonining Vatan himoyachilariga yo‘llagan tabrigi chop etilib, unda qurolli Kuchlar oldida turgan eng dolzarb vazifalar belgilab beriladi.

Ona yurtimiz har doim o‘zining mard, jasur yigitlari bilan faxrlanib kelgan. Yigitlarimiz ota-onasi va oilasini, o‘zi yashayotgan yurt tuprog‘ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doimo shay turishni burch deb hisoblagan. Ushbu bayramning nishonlanishi xalqimizning o‘z milliy armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, alp yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi. Qo‘mita jamoasi nomidan barcha Vatan himoyachilarini ushbu muborak bayram bilan tabriklaymiz hamda ularga oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sog’liq-salomatlilik tilab qolamiz. Hayotingiz doimo sharaf va zafarlarga to‘liq bo‘lsin.

O‘zbekistonda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy bayram. Ushbu sana bejiz tanlanmagan. 1992-yil 14-yanvar kuni O‘zbekiston Qurolli kuchlari shakllantirilgan kun.

Shu kuni Mustaqillik maydonida tantanali marosim o'tkaziladi, unda Respublika gimni yangraydi, harbiy orkestrning tantanali sadolari ostida harbiy bo'linmalar marsh bilan o'tadi. Monument poyiga gulchambarlar qo'yiladi va Oliy Bosh qo'mondonning Vatan himoyachilariga bag'ishlangan bayram nutqi yangraydi.

O'zbekistonda ushbu bayram kunida aholi barcha erkaklarni tabriklaydi, sovg'alar tayyorlab, mazali taomlarga to'la dasturxon yozadi. Bayram kunida nafaqat harbiylar, balki turli yoshdagi barcha erkaklar tabrik nomalarini oladi. Har bir o'g'il bola yoki pensiyadagi qariya ham Vatan himoyachisi hisoblanadi, chunki kelajakda o'sib kelayotgan avlod mamlakat qahramonlariga aylanadi, keksalar esa Vatan uchun o'z xizmat burchlarini ado qilib bo'lgan.

Ushbu sanada O'zbekistonda Temuriylar imperiyasiga asos solgan buyuk sarkarda va jahongir Amir Temur (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) xotirasi yod etiladi. Uni milliy qahramon sifatida qadrlashadi, chunki Amir Temur (Temurlang) sadoqatli askarlarni tayyorlagan. Ushbu sarkarda nafaqat qo'shni mamlakatlar bilan, balki Oltin O'rda, Usmoniylar imperiyasi va Hindiston bilan ham janglar olib borgan. Temur uchun qo'shni davlatlarning yerlarini talon-taroj qilish emas, balki Vatanni O'rdadan himoya qilish muhim bo'lgan. Shu bois Vatan himoyachisi kunida odamlar buyuk sarkardaning xotirasini yod qilishni o'zlarining burchi deb biladi.

Butun O'zbekiston aholisi uchun Vatan himoyachilari kuni katta ahamiyatga ega. **Ushbu bayram davlat erkinligi va mustaqilligining ramzidir.**



# **Vatan himoyachilari kuniga bag`ishlangan she`rlar**

## **Askar**

Saflarda qad kerib turgan ey askar,  
Bilgil, mardni ko`rsa, chekinar xatar.  
Yurakni, bilakni etgil safarbar,  
Gulday diyoringni asra hamisha!  
Duosi, so‘zлari yodingda tursin,  
Nur ingan yuzlari yodingda tursin,  
Mehrli ko‘zлari yodingda tursin,  
Onaizoringni asra hamisha!  
Singling bor – tegrangda parvona, halak,  
Og‘a-ingning esa – mag‘rur, dovyurak.  
Chin do‘stlaring bo‘lar yurakka tirkak –  
Qatorda noringni asra hamisha.  
Bir kuni omading, baxting kuladi,  
Uying ham, ko‘ngling ham fayzga to‘ladi.  
Bolangga munosib ona bo‘ladi –  
Intizor yoringni asra hamisha!  
Vatan – or timsoli, Vatan – nomus, shon,  
Nomus bilan aziz sanalgay inson.  
Sen oringga qo‘rg‘on, or – senga qo‘rg‘on,  
Oringni – boringni asra hamisha!

## **YIGITLAR**

Yigitlar halqlarning maktovi-ko‘rki  
Naslning javhari, davlat tayanchi,  
Yurtning obodligi, to‘ylar sababi,  
Elning gurkirashi, fayzi, quvonchi.  
Yigit omon bo‘lsa, xavfu-xatar yo‘q,  
Qalqon bor, qal’a but, qo‘rg‘on salomat,  
Qizlar kulgusida avju daromad,  
Chollar uyqusida jannat, farog‘at.

## **Vatanim nomini dunyoga aytib**

Vatanim nomini dunyoga aytib,  
Yetkizdim ta'rifin hech bir nuqson siz,  
Dunyo go'zal dedi men aytdim unga,  
Dunyo ham dunyomi O'zbekistonsiz.  
Tinchlikni bahshida etdi yurtboshim,  
So'ngi manzilimda xalqim yo'ldoshim,  
Vatanim faxrimdir ko'kdadir boshim,  
Dunyo ham dunyomi O'zbekistonsiz.  
Bolakay yi qilib tushsa gar nogoh,  
Qo'shnisi o'rnidan turgizar panoh,  
Mehmonlar aytishar bu go'zal dargoh,  
Dunyo ham dunyomi O'zbekistonsiz.  
Bolalar hur quvnab o'ynashiga boq,  
Bolakay vatan deb kuylashiga boq,  
Yaxshilar ketmasin yurtimdan yiroq,  
Dunyo ham dunyomi O'zbekistonsiz.  
Azaldan mehribon oq-ko'ngil xalqim,  
Albatta buyukdir bilsinlar har kim,  
Barchaga savolim eshititingiz jim,  
Dunyo ham dunyomi O'zbekistonsiz.



## **Askarlar haqida tabrik she'r**

Bir kecha qo'qqisdan uyg'onib ketdim,  
Soatga qarasam, ikkimi yo uch.  
(Ehtimol sovuqdan) junjukdi etim,  
Tashqariga tortdi allaqanday kuch.  
Qandaydir sharpani ilg'ab o'zicha,  
Go'yo ogoh etib bizlarni xavfdan,  
"Havf, havf", deya bor ovozicha  
Kuchuk hurar edi qo'shni tarafda.  
Ko'ngil-da, atrofni ko'zdan kechirdim,  
Shukrki, hammayoq tinch va osuda.  
Tunchiroq nurida ko'rib, entikdim,  
Farzandlarim yotar qator uyquda.  
Hovlida o'ynoqlab, kuylaydi shamol,  
Bir-birin raqsga tortar xazonlar.  
Daraxtlar jimgina surmoqda xayol,  
Boshini tebratar gulu rayhonlar.  
Tinchlik, hotirjamlik – ezgu tushuncha,  
Shaksiz, yaratganning inoyati – bu.  
Va ayni paytda qanchadan qancha,  
Bedor nigohlarning sharofati – bu.  
Kunni kun, tunni tun, demay, sarhadda,  
Bedor, sergak turgan, ey askar ukam,  
Sizlar bor, yashaymiz tinch, farog'atda,  
Yaxshiyam sizlar bor – bizlarga ne g'am.  
Tinchlik qadrin bildim ota bo'lgach men,  
Shular bor, ko'naman hayot g'amiga.  
Bola kulgasiga, aytgil, nima teng,  
Dunyoni alishmam tabassumiga.  
Senga ko'ngildagi borini aytay,  
Sabru sabot tilay ayni choqda man.  
Yaxshi niyat bilan sizlarga atay,  
Uchta o'rinosar o'stirmoqdaman.  
Mudomki turibsiz ko'krakni kerib,  
Yo'l yo'q havotirga, yo'l yo'q qayg'uga.  
Endi dilbandlarim yoniga kirib,  
Uyquga ketaman, shirin uyquga.



## Vatanparvarlar

Kimdir cho'pak otsa o'zbek nomiga,  
Tegadi g'ururning baland tomiga,  
Yurak zirillaydi, ko'zda chaqnar o't,  
Tortadi alamli o'ylar domiga...  
Shukurkim, yurt-el tinch, but qo'rg'onlari,  
Sarhadini tutgan alp o'g'lonlari,  
Bolasin beshikda quchgan kelinchak,  
Tuprog'ini sevgan bobojonlari.  
Bu zamin ichinda bitta Vatan bor,  
Bir bog' bor , bir gulshan , bitta chamanzor!  
Oh , mening yuragim – jon, O'bekiston,  
Mening muhabbatim aks etgan diyor.  
Ko'taring boricha bu el shonini,  
Ko'rsating dunyoga bor imkonini,  
G'ayurlarning dami ichida qolsin,  
E'zozlab olishsin tilga nomini.  
Erkakdan omadni ayama falak,  
Jonini asragil, etmagil xalak.  
Omadni qo'sh-qo'sh ber, baxtini bekam,  
Nomardga zor etma, ko'rmasin alam.



## **14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni»ga «O`zbekiston askarlari» nomli tadbir ssenariysi**

Zal bayrmona sharlar bilan bezatiladi. O`zbekiston Respublikasi davlat ramzları, vatan himoyachilari bo`lmish yosh askarlar plakatlari namoyish etilgan. Sahnaning o`ng tomonida davlatimiz bayrog`i qo`yilgan.

Sahnaga vatanni madh etuvchi kuy orqali ikki boshlovchi va yosh askarlar libosida o`quvchilar chiqadilar.

1-boshlovchi: Assolomu alaykum, hurmatli ustozlar! Qadrli mehmonlar, aziz o`quvchilar!

O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etiladi.

O`quvchilar sahnaga birin-ketin chiqib davlat ramzları haqida so`zlaydilar.

- 1991-yil 1sentabr O`zbekiston respublikasi o`z mustaqilligiga erishgan kun.
- Mustaqil davlatimizning o`z gerbi bor.
- O`zbekiston Respublikasi davlat bayrog`iga ega.
- O`zbekiston sportchilarining g`oliblik shohsuppasiga ko`tarilganlariga yangrovchi madhiyamiz bor.

Yosh askarlar vatanni madh etuvchi she`r aytadilar:

-Vatan deya ko`z ochsam,

Shirin o`yga tolaman.

Shunday go`zal zamonda,

Yayrab nafas olaman.

-Yurtim deya she`r yozsam,

Tanda jonim yayraydi.

Quvonchga to`lib bu dam

Sevinch yoshim tinmaydi.

Azizlarim, aytинг  
Bu ishtiyoqmi yo havas  
Vatan degan tuyg`uga  
Bo`lgim kelar hamnafas.

-Maqsadimiz yagona,  
Keling birdam bo`laylik,  
Shu el, shu diyor uchun  
Yonib xizmat qilaylik!

Yosh askarlar ijrosida «Askarlar» qo`shig`i kuylanadi.  
1-boshlovchi: Davlatimiz o`z havfsizligini ta`minlash, yurt tinchligini SAqlash maqsadida o`z armiyasiga va qurolli kuchiga egadir.

2-boshlovchi O`zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari 1992-yil 14-yanvarda tashkil topgan

1-boshlovchi: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 bobi, 125- moddasida: «O`zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari O`zbekiston Respublikasining davlat suverinitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va havfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.»

2-boshlovchi: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126 - moddasida O`zbekiston Respublikasi o`z xavfsizligini ta`minlash uchun yetarli darajada Qurolli kuchlariga egaligi aytib o`tilgan.

O`quvchilar «Iftixor» she`rini aytishadi.

1-o`quvchi:

*Yigirma yil o`tdi, lahzadek go`yo,  
Qo`limni duoga ochayotirman.  
Ozodlik, ozodlik, sening qadringni  
Yurakdan his etib yashayotirman.*

## **2-o`quvchi:**

*Xalqim, har qadaming asrlarga teng,*

*Soniylar darak berar yillardan.*

*Hurriyat, ozodlik deya hayqirsam,*

*Aks sadolar kelar Bobo tog'lardan*

## **3-o`quvchi:**

*Ana, kelayapti mo'ysafid bobo,*

*Qo'lidan yetaklab nabirasini.*

*Cheku chegarasi yo'q quvonchining,*

*Topganday yo'qotgan xazinasini:*

## **4-o`quvchi:**

*«Bolam, qadriga yet istiqlolning sen,*

*Bilki, shodligimdan tanda titroq bu.*

*Har bir zarrasini asra jon kabi,*

*Ulug'lar kamolga yetgan tuproq bu!».*

## **5-o`quvchi:**

*Keksalar davraning to'rida mudom,*

*Etibor, g'amxo'rlik murg'ak jonga.*

*Asrab-avaylaylik onamiz kabi,*

*Aslo ko'z tegmasin O'zbekistonga!*

1-boshlovchi: O`zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari maxsus qo`shinlar, va havo hujumidagi mudofaa qo`shinlariga va boshqa harbiy qismlarga ega.

2-boshlovchi: Bundan ko`rinib turibdiki bizning qudratli armiyamiz bizning tundagi va kundagi tinchligimizni, qora niyatli insonlarni hujumidan har tomonlama himoya qilishga qodir ekan.

1-o`quvchi: Mustaqil burch-vatanni,

Matonat-la asramoq !

Mustaqil yurt jon-tanni,

Mehr-u ont-la asramoq !

2-o`quvchi:

-Vatan – mening onamsan,  
Issiq quchog`ing.  
Olamba yagonasan  
Aziz tuprog`ing.

3-o`quvchi:

Tug`ilib o`sdim bu vatanda,

Vatanimmisli yo`q jahonda!

Tog`laridan konlar chiqar,

Yerlaridan donlar chiqar.

O`g`il bolalar harbiycha kurash usullaridan va mashqlaridan namoyish etib boradilar

1-boshlovchi: Tinchlik bebaho ne`mat. Farovon hayotda biz o`quvchilarni yaxshi va osoyishta,barkamol insonlar bo`lib kamol topishimiz uchun bizda

Hamma: Tinchlik! kerak.

2-boshlovchi: Yoshi ulug` bobo-yu buvijonlarimiz, mehribon onalarimiz tongdan to tungacha duolari faqat bu -

Hamma: Tinchlik! so`zidir.

1-o`quvchi: - Yer yuzida tinchlik bo`lsin

Olam doim baxtga to`lsin.

2-o`quvchi: Nurli quyosh porlab tursin,

Moviy osmon chorlab tursin

O'quvchilar ijrosida «Vatan» qo'shig'i ijro etiladi.

O'qituvchi tadbirni o'z dil izxori bilan yakunlaydi

- aziz ustozlar, qadrli mehmonlar hamda o'quvchilar

Bugungi vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbirimiz o'z nixoyasiga yetdi.

Yurt tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan askarlarimizga xam tinch-totuvlik, inson uchun eng kerakligi sog'liq tilaymiz.

*(Bayramona bezatilgan sahna. To‘rda Vatanimiz himoyachilari, davlatimiz qurolli kuchlari aks etgan plakatlar va «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni!», «14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni» singari shiorlar osilgan. Ichki ishlar xodimlari, mahalla posbonlari taklif etilgan. Marsh sadolari ostida ikki boshlovchi sahnaga chiqadi).*

**1- boshlovchi:** — Assalomu alaykum, osuda hayotimizning posbonlari, hurmatli otaxonlar, mehri ummon onaxonlar, ustoz-murabbiylar! Sizni bugungi davramizning aziz mehmoni sifatida ko‘rib turganimizdan juda xursandmiz.

**2- boshlovchi:** — Biz bugun 14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yillik to‘yini nishonlash maqsadida ushbu koshonaga yig‘ildik. E’tiboringizga «Bizlar — kichik askarlar» mavzusidagi tadbirni havola qilamiz.

**1- boshlovchi:** — Dunyoda «Vatan» so‘zidan aziz va yurakka yaqin kalom topilmagani kabi, vatan himoyachisi bo‘lishdan ortiq shon-sharaf ham yo‘q. Mazkur tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, asrlar osha ajdodlarimiz o‘gitlarida, xalqimizning bugungi buniyodkorlik ishlarida yashab kelmoqda.

**2- boshlovchi:** — Bu bayram — el-yurtga sadoqat bayrami. Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligining, kelajagi buyuk davlat barpo etayotgan O‘zbekiston fuqarolarining tinch-osoyishta hayoti, buniyodkorlik yo‘lidagi mehnati xavfsizligining kafolatidir.

**1- boshlovchi:** — Vatan himoyachisi deganda ko‘z o‘ngingizda kimlar gavdalananadi?

**1- o‘quvchi:** — Men muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan akamni ko‘z oldimga keltiraman.



**2- o‘quvchi:** — Kursantlarga harbiy bilim berib kelayotgan dadamni birinchi navbatda eslayman.

**3- o‘quvchi:** — Hozirgi kunda nafaqadagi bobom ham vatan himoyachisi bo‘lgan.

**4- o‘quvchi:** — Vatan himoyachisi deganda ko‘z o‘ngimizda, eng avvalo, qomatiga harbiy libos yarashgan, tug‘ilgan yurti va oq sut bergen xalqini jondan sevuvchi, zamonaviy harbiy bilim va ko‘nikmalarga ega, tinchlik va barqarorlikni saqlashdek olijanob maqsad yo‘lida har qanday jasoratga tayyor mard va botir o‘g‘lonlar namoyon bo‘ladi.

**1- boshlovchi:** — Har birimiz yaxshi xulq va a’lo baholarimiz bilan vatanga sodiq farzand ekanligimizni ko‘rsatamiz. Hozirgi videorolikda ham bunga guvoh bo‘lamiz.

(«Vatanimga xizmat qilaman» videoroligi namoyish etiladi).

**2- boshlovchi:** — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar», deyilgan.



**1- boshlovchi:** — Vatan, vatan himoyasi haqida shoirlar ko‘p she’rlar bitgan. O‘quvchilarimiz yod olgan ana shunday she’rlarni aytishadi.

(*Ular shoir Rauf Tolibning «O‘zbek askari so‘zi» nomli she’rini o‘qishadi*).

**1- o‘quvchi:**

Men askarman, doimo

Hushyorlik menga qurol.

Darrov sezaman, hatto

Shitirlasa, gar shamol.

**2- o‘quvchi:**

Axir ona-Vatanim

Tikkan menga ko‘zini,

Fido etib bu jonim,

Oqlayman yurt tuzini.

**3- o‘quvchi:**

Qo‘riqlayman el tinchin,

Tonglarning kulgasini.

Keksalar baxt, sevinchin,

Go‘daklar kelgasini.

**4- o‘quvchi:**

— Mustaqil ona-Vatan

Mening ko‘z qarog‘imda.

Axir shu yurt, shu chaman,

O‘stirdi quchog‘ida.

**1- boshlovchi:** — Askar — mard, jasur, epchil, kuchli yigit degani. Sinfimizning o‘g‘lonlari Vatanimizning bo‘lajak posbonlaridir. Ular hozir jasur askar bo‘lish orzusida.

**2- boshlovchi:** — Ular ishtirokidagi sahna ko‘rinishini tomosha qiling.

(2010- yil 12- yanvarda poytaxtimizda ochilgan «Vatanga qasamyod» monumentining surati oldida o‘g‘il bolalar davlatimiz timsoli — bayrog‘imizni o‘pib, Vatan himoyasi uchun, qutlug‘ zaminning har qarich tuprog‘ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho‘kib qasamyod qilishadi. Sahna ko‘rinishi tugagach, bo‘lajak askarlar O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymonning «Askarlar» nomli jangovar qo‘srig‘ini aytib chiqib ketadilar).



**1- boshlovchi:** — Bugungi kunda nafaqat mard yigitlar, balki jasoratli qizlar ham Vatan himoyasi, el kori uchun bel bog‘lab xizmat qilmoqda. Ular haqida sinfimiz qizlari she’r yod olishgan. Marhamat!

**1- o‘quvchi:**

To‘marisning avlodlari asli sizlar,  
Oybarchinday shijoatli, shahdli qizlar.  
Qasamyodga sodiq qutlug‘ ahdli sizlar,  
El posboni libosini kiygan qizlar.

**2- o‘quvchi:**

Baxtlisizlar kun-tun elga tinchlik so‘rab,  
Lekin doim yurolmaysiz o‘ynab-yayrab.  
Yurtni ko‘proq sevgim kelar sizga qarab,  
El posboni libosini kiygan qizlar.

**3- o‘quvchi:**

Yelkangizda yulduzchalar porlab turar,  
Sizni mudom yorug‘likka chorlab turar.  
Siz kulganda osoyishta olam kular  
El posboni libosini kiygan qizlar.  
*(«Ko ‘pkari» raqsi).*

**1- boshlovchi:** — Biz To‘maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi dovyurak sarkardalarning vorislarmiz. Ishonch bilan aytamizki, bobolarimizga munosib, Vatanimizga sodiq farzand bo‘lamiz.

**2- boshlovchi:** — Tadbirimizga tashrif buyurgan ichki ishlar xodimlariga so‘z navbatini beramiz. (*Ular ogohlik, tinchlikning qadriga yetish kerakligi haqida gapirishadi*).

**1- boshlovchi:** — Bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi. Barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana — Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari 25 yilligi bilan chin qalbdan yana bir bor muborakbod etamiz.

**2-boshlovchi:** — Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo‘lsin.

## VATAN HIMOYACHILARI KUNI – TADBIR SENARIYSI

---

**Mavzu:** **O‘zbekiston farzandlari,**

Kelajak posbonlari

O‘quvchilar: Vatan Tinchlik qo’rg’oni,  
Har bir o‘g’lon uning posboni.

O‘qituvchi: Assalomu- alaykum hurmatli ustozlar, mehribon tarbiyachilar.  
Bugungi tarbiyaviy soatimiz 14 yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag’ishlanadi.  
Barcha vatandoshlarimizni bu bayram bilan muborakbod etamiz. Tarbiyaviy soatimizni ochiq deb e’lon qilamiz.

Madhiya yangraydi.

1-o‘quvchi: Salom sizga yurak to’ridan

Davramizga yig’ilgan do’starlar

Ko’ksimizga qo’limiz qo’yib,

Deymiz sizga hush kelibsizlar.

2-o‘quvchi: Salomim sizga ahli Turondan

Dardga malham bo’lgan har aziz jondan

3-o‘quvchi: Assalomu alaykum elim, xalqimga

Ta’zim qilay qo’llarimni qo’yib ko’ksimga.

4-o‘quvchi: Assalomu alaykum aziz mehmonlar ,

Qadamida gul ungan qalbi ummonlar.

5-o‘quvchi: Vatanini jondan sevgan,

Bu diyorda baxti kulgan,

Salom deymiz sizga dildan,

Izhor etaylik chin ko’ngildan.

O‘quvchi: Otamiz ochgan eshik

Onamiz quchgan beshik

Qay birimiz gul ekdk

Qay birimiz kul sochdik.

Ko’zingni och ey inson

Vatan mezbon biz mehmon

Vatansiz valiyalar ham

Yashagan ko’ngil kemtik

Yashasak bu dunvoda

Vatan uchun yashaylik

O'zbekiston atalmish

Chaman uchun yashaylik.

"O'zbekiston qo'shig'i" ijro etiladi.

1-o'quvchi: Ikki daryo o'rtasida barq urgan Turon,

Olloh bergen boyliklarga ko'p ellar xayron

2- o'quvchi: Yaxshilarning dillarida ezgu o'y-fikr,

Ayrim ochko'z xukmronlar qilar ming fikr

3- o'quvchi: Kuch adolat mezondir degan bobomiz,

Bobolarning o'gitidan quvvat olgaymiz

O'qituvchi: Darhaqiqat buyuk bobomiz Amir Temur ikki daryo oralig'ida ulkan davlat barpo etdilar. Bu davlatning dovrug'i ko'p ellarga yetib bordi. Buyuk davlati o'rniga oradan talay vaqt o'tib bizning mustaqil O'zbekistonimiz qad ko'tardi va 1991 yil 1 sentabrda O'zbekiston mustaqilligi kuni deb e'lon qilindi. Endi bizning vatanimiz ozod ellar qatorida hur va mustaqil bo'ldi. Bolalar o'zi Amir Temur kim edi?

O'quvchilar: Amir Temur bobomiz,

Mard va jasur bobomiz.

Jangu jadallar kezgan,

Ulug' davlat yurt tuzgan.

Abadiy o'chmas nomi

Dilimizda kalomi.

Unutmaymiz hech qachon

Sizni ulug' bobojon.

1- o'quvchi: To'marislар, Shiroqlarning qonidan tomgan

Necha-necha mard o'g'lonlar jonini bergen,

Tog'larida bobolarning izlari qolgan

Mustaqillik mangu bo'lsin ona diyorum.

2- o'quvchi: Qadim Turon berding ko'plab olim, dononi

Xorazmiy-u, Beruniy-u, Ibn Sinoni

Butun qalbim bilan tinglay o'tmish sadoni

Istiqloling qutlug' bo'lsin aziz Turonim.

3- o'q-chi: Sening sonsiz boyliklaring dushmanga

yoqdi Gohi g'arbdan, gohi sharqdan yog'iylar oqdi

O'zbegimning ko'zlaridan ko'z yoshlar oqdi

O'g'lonlaring seni asrar O'zbekistonim,

Istiqloling mangu bo'lsin aziz Turonim.

O'qituvchi: Mustaqilligimiz mangu bo'lishi, Vatan tinchligini saqlash uchun

O'zbekiston Respublikasi xarbiy qo'shnulari o'z yurtlarini dushmanlardan himoya

qilishni oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. Sodiq qolish uchun qasamyod etdilar.

Savol-javob o'tkaziladi.

1-o'quvchi: Qoyalaru dalalardan chegaramiz o'tadi

Balkim biron pastqam yerda

Dushman poylab yotadi.

Vatanini xarbiylar dushmanlarga talatmas

O'z yurtini sevganlar g'animgarni yo'latmas.

2- o'quvchi: Bepoyondir osmonimiz  
Tiniq, zilol suvimir,  
O'zbekiston ravnaq topsin  
Shudir orzu o'yimir  
Vatanimga qasd qilganlar  
Niyatiga yetolmas  
Mustahkamdir chegaramiz  
Biron dushman o'tolmas.

O'qituvchi: Vatanimiz mustaqil deb e'lon qilingandan beri, O'zbekistonning dushmanlari borligiga hech kim ishonmas edi. Ming afsuski Vatanining ravnaqini , xalq ozodligini ko'rolmaydiganlar ham uchrab qoldi. 1996 yil 16 fevralda Toshkentda terrorchilar harakati amalga oshirildi. Buning natijasida ko'plab vatandoshlarimiz xalok bo'ldilar. Ko'p joylar vayron bo'ldi. Bu singari nodonlik va nonko'rliklarni xalqimiz qattiq qoraladi. Yana 1999 yil va 2000 yil yozda O'zbekiston chegarasida terorchilar tomonidan notinch bo'ldi. Shu yil Vatan himoyachilaridan bir qanchasi bevaqt xalok bo'ldilar. Biz bu Vatandoshlarimiz bilan faxrlanamiz va ularning porloq xotirasi qalbimizda mangu yashaydi. Ta'zim qilishadi.Siz ham kelajakda yurt tinchligiga hissa qo'shasiz deb o'ylayman.Chunki:

1-o'quvchi: Yigitlar xalqlarning maqtovi, ko'rki.  
Naslning javhari , davlat tayanchi,  
Yurtning obodligi, to'ylar sababi,  
Elning gurkirashi, fayzi, quvonchi.  
2- o'quvchi: Yigit omon bo'lsa xavfu xatar yo'q  
Qalqon bor, qal'a bu , qo'rg'on salomat,  
Yigitlar kulgusiga avju daromod  
Go'dak uyqusida rohat- xalovat.

O'qituvchi: Siz bugun Alpomish, Amir Temurga  
Munosib nabira, mard, jasur o'g'lon  
Ajdodlar pok ruhi qo'llasin sizni  
Sizga tayanadi hur O'zbekiston.  
Xarbiy qo'shiq ijro etiladi.

1- o'quvchi: Vatan bag'rin yashnatib, gulzor etib,  
Yuraklarni bir umr bedor etib,  
Bosh ko'tarsa yovlarni tor-mor etib,  
Tinchlik uchun metin qo'rg'on bo'laylik  
Shu aziz Vatanga qalqon bo'laylik.

2- o'quvchi: Bu hur kunlar asli doril-omondir,  
Bobolarim orzu qilgan zamondir  
Kimga darmon , kimgargadir armondir,  
Shukronalar aytib , shodon bo'laylik  
Shu aziz Vatanga qalqon bo'laylik.

3- o'quvchi: Temur bobom bizni doim qo'llagay  
Jaloliddin jasoratga yo'llagay  
Ajdodlarning matonati o'lmagay  
Biz ularga sodiq o'g'lon bo'laylik  
Shu aziz Vatanga qalqon bo'laylik.

4-o'quvchi: Vatandosh mag'rur tutgin boshingni,  
Vatan ishqisi yoqsin bor vujudingni,  
Asray bilgin istiqlol quyoshingni,  
Hur tug'ildik, hurki inson bo'laylik  
Shu aziz Vatanga qalqon bo'laylik.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar bilasizmi Vatan himoyasi uchun biz bir tanu bir jon bo'lishimiz kerak.

Sahna ko'rinishi- "Ota va yeti o'g'il".

1-o'quvchi: Ona yurtim beba ho o'lkam  
Sening sodiq farzandlaring bor  
Biror dushman gar qadam qo'ysa,  
Daydi itday bo'lajakdir xor.

2-o'quvchi: O'g'lonlaring noming taratsin  
Po'lat, Artur, Muhammad Qodir  
Dono rahbar bosh bo'lgan ellar  
Doim erur zafarga qodir.

3-o'quvchi: O'zbekiston asrasin ollo  
O'g'lonlaring gavhardek saqlar  
Vatan bergen non hamda tuzni  
Bir umrga farzandlar oqlar.

4-o'quvchi: Vatan uchun jonini bergen  
Omon bo'lsin botir o'g'lonlar  
Vatanimiz mustahkam bo'lsin  
Ko'z tikmasin also yomonlar.

O'qituvchi: Vatandan qarzi bo'lar farzand deganning  
O'zining ramzi bo'lar har bir maskanning  
Ho'sh nima degaysiz, ramzi Turonning  
Paxta-bug'doy barakasi O'zbekistonning  
Boshida kulib turar quyoshi uning  
Nuri bor keksayu- yoshida uning  
G'ubordan holidir zangor osmoni  
Yam-yashil jannatdek bog'-u bo'stoni  
Har doim shukurim bildirib qo'yib,  
Yashayman pokiza yurtda Vatanda  
Takrorlayman har kun fidoyiligim  
Bag'ishlay borimni Vatanim uchun.  
Raqs.

O'zbekning o'g'lonlari botir bo'lsin, mard bo'lsin.  
Vatan uchun shahidlarning poylaridan gul unsin.  
O'z yurtiga jonin fido qilganlarga ming rahmat  
Ular nomi yuraklarda o'chmas deymiz toabad.

Shu bilan Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab tayyorlagan tarbiyaviy soat o'z nihoyasiga yetdi. Asrlar osha Vatanimiz qudrati yanada yuksalaversin, hayotimiz farovon bo'lsin, va biz o'quvchilarimiz, ya'ni bolajonlarimiz bilan birlgilikda shunday deymiz: Batan haqida qo'shiq bilan yakunlanadi.

*Ushbu eslatmani tayyorlashda internet tarmog`idan foydalanildi.*

*Paxtakor tuman axborot kutubxona markazi axborot bibliografiya xodimi: Saydayeva Sh*